

O'ZBEKISTON ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

REFERAT

MAVZU: «Kutubxonashunoslik davrlari.Alexandriya kutubxonasi
misolida»


Guruh: 291-11

Bajardi: Mustafayeva Sh.

Qabul qildi: Mahmudov.M.X.

TOSHKENT 2014

ALEXANDRIYA KUTUBXONASI



Misrning Aleksandriya kutubxonasi butun dunyoga mashhur. Kutubxona antik olamning eng keng hajmdagi bilimlar jamlanmasi hamda asosiy ilmiy markazlardan biri bo'lib, unda jamlangan besh yuz mingga yaqin bebahodan qo'lyozmalar orasida Esxil, Sofokl, Yevripid va boshqa antik dunyo olimu donishmandlarining asarlari bor edi.

Aleksandriya kutubxonasi tamal toshi fir'avnlar sulolasini tugagandan so'ng grek sulolasining Misrdagi birinchi podshosi Ptolemey tomonidan qo'yilgan. Kutubxona dastlabki strukturasini Afina kutubxonalarini qurilmalari bilan juda yaxshi tanish bo'lgan afinalik davlat namoyandasini Demetri Falernskiy ishlab chiqqan. Kutubxona qurilishi eramizdan avvalgi uchinchi asr boshida yakunlangan.

Aleksandriya kutubxonasini to'ldirish muammosi o'ziga xos tarzda hal etilgan. Misr amaldorlari barcha tobe mamlakatlardan grek qo'lyozmalarini kutubxonaga jamlay boshladilar: Aleksandriya portiga turli davlatlardan kirib kelgan kemalarda agar adabiy asarlar bo'lsa, ularni kutubxonaga sotishi yoki nusxa ko'chirib olish uchun topshirishlari kerak bo'lgan. Ayrim hollarda, agar qo'lyozmalar o'zida hech qanday qiziqish uyg'otmasa, ular ortga qaytarib yuborilgan. Afsonalardan biriga ko'ra, Ptolemey III Sofokl, Esxil va Evripid tragediyalarining asl nusxalarini uchun Afina arxiviga katta miqdordagi pulni garov tariqasida to'laydi. Matnlar nusxa ko'chirib olinganidan so'ng qaytarilishi va'da qilingan bo'lsa-da, Afina ularni qaytib ko'rmagan... "Kitob – bu kuchli ishtiyoq, ularni kolleksiya qilish esa – kasallikdir" – degan so'z aynan Aleksandriyada tug'ilganligi bejiz emas.

Kutubxona saqlovchilari qo'lga kiritilgan barcha kitoblardan nusxa olishgan, yuzlab bilimli qullar har kuni minglab qo'lyozmalarni saralash va qayta yozish bilan shug'ullangan. Aksariyat kitob egalari Misrdan o'z nashrlarining asl nusxalarisiz chiqib ketishgan, imkon topganlargagina kitoblaridan nusxa berilgan. "Kemalarda keltirilgan" asl nusxalar kutubxona omborlariga jo'natilgan va "kema kutubxonasi" deb nomlangan. Shu tariqa Aleksandriyada tibbiyot adabiyoti, jumladan, Gippokratning "Yuqumli kasalliklar" asari paydo bo'lgan.

Aleksandriya kutubxonasi jamg‘armasida turli davrlarda ikki yuz minggacha yetti yuzgacha qadimgi qo‘lyozmalar saqlangan. Kutubxona muzey bilan birlashtirilishi natijasida birinchi universitetga aylandi. Bu yerda faoliyat olib borgan Evklid geometriyaga asos soldi, Aristarx Yerning Quyosh atrofida aylanishi taxminini ilgari surdi, Eratosfen nihoyatda aniqlik bilan sayyoramiz aylanishini hisoblab chiqdi, Geofil esa inson tanasini anatomlashtirdi va aql odamning yuragida emas, boshida ekanligi to‘xtamiga keldi.



Etti asr mobaynida kutubxonada yuzlab olimlar ish olib bordilar – o‘rgandilar, o‘qidilar, muhokama qildilar va o‘zlarining shoh asarlarini yaratdilar. Ular hukmdor farmoniga ko‘ra ishlab chiqarilishi mutloq sir tutilgan papiruslarga yozganlar. Pergamdagagi yosh kutubxona faoliyatini rivojlantirish va Aleksandriyani dunyo madaniyat markazi sifatida saqlab qolish uchun Ptolemeylar papiruslarni Misrdan eksport qilishni taqiqlab qo‘ygan. O‘scha paytda Pergamda terilardan kitoblar tayyorlash uchun asosiy material ishlab chiqaradigan qadimiy texnologiya qayta tiklanadi. Ptolemeylar farmoniga ko‘ra, Pergam kutubxonasi yuz yildan oshiqroq Aleksandriya kutubxonasi bilan raqobatlashadi. Nihoyat, bahs Aleksandriya kutubxonasi foydasiga hal bo‘ladi: hamma tan olgan faktga ko‘ra, Mark Antoniy shahar uchun juda katta iltifot ko‘rsatadi – Pergam kutubxonasidan 200 ming tomni o‘g‘irlab Kleopatraga sovg‘a qiladi.

Eramizdan avvalgi 283 yilda 30 dan 50 nafargacha olimlar kutubxonaga olib kelinadi. Ularga aql bovar qilmaydigan (hukmdor saroyida yuqori hurmat-ehtirom ostida yashash, qirollik xazinasi hisobidan ovqatlanish, soliq to‘lashdan ozod etilish) shart-sharoitlar yaratilib beriladi. Ammo donishmand Ptolemeylar ushbu barcha ezguliklarni doimiy sergaklik bilan nazorat qilib turishgan. Olimlar o‘scha paytlardayoq qirol ishtirokida simpoziumlar va davra suhbatlari tashkil etishib, ilmiy, adabiy va falsafiy muammolarni muhokama qilishni yo‘lga qo‘yishgan. Shu tariqa matematika, geografiya, astronomiya, tibbiyot – barchasi podshoh marhamati ostida Aleksandriya kutubxonasida fan sifatida pishib-etildi. Bebafo va nodir kitoblar buyuk kashfiyotlarga yo‘l ochdi. Astronomiya hamda unga bog‘liq bo‘lgan matematika va mexanika Arximed tadqiqotlarining tizimli faniga aylanib, Nil quyilishini o‘rganishiga sabab bo‘ldi. Bu yerda u gidrostatika (gidromexanikaning

suyuqliklar muvozanati haqidagi bo‘limi)ga asos soldi va “Arximed richagi”ni kashf etdi. Evklid esa matematikada buyuk kashfiyotlar qilib, o‘zining “Muqaddima”sini yozdi.

Ptolemey II ham fan va san'atni juda qadrlar edi. U ashaddiy kitob yig‘uvchi bo‘lib, uning davrida Aleksandriya kutubxonasi juda katta hajmdagi Afina qo‘lyozmalari, jumladan, buyuk Esxil, Sofokl, Yevripid asarlarining asl nusxalari bilan to‘ldiriladi. Bugungi kun nuqtai nazaridan baholaganda, Aleksandriyaning antik kutubxonasi boyligi 128 ming zamonaviy tomga tengdir. Hatto mazkur kutubxonada nusxasi bo‘lmagan dunyodagi birorta qimmatbaho asar qolmagan deb hisoblanadi. Saqlovxonadan nafaqat qo‘lyozmalar, balki toshyozmalar, mumlangan taxtachalardagi mixxatlar va iyeroglislar ham o‘rin olgan.

O‘sha paytlarda Aleksandriya kutubxonasida saqlovchi bo‘lib ishlash juda yuksak sharaf va unvon bo‘lgan. Kutubxonaning birinchi saqlovchisi Zenadot Efesskiy (er. av. 234 yilgacha) bo‘lgan. Undan so‘ng Eratosfen Kirenskiy (er. av. 236 yildan 195 yilgacha), Aristofan Vizantiyskiy (er. av. 185-180 yillar.), Aristarx Samofrakiyskiy (er. av. 146 yildan)lar ushbu mas’uliyatli vazifada ishlagan. Bosh kutubxonachilar rahbarligi ostida xodimlar juda katta ishlarni amalga oshirishgan. Yangi asarlar doimiy ravishda katalogga kiritilgan: katalogga asarning sobiq egasi, muallif ismi va qisqacha referat joylashtirilgan. Xodimlar qo‘lyozmalardan nusxa ko‘chirish asnosida xatolarini tuzatib borishgan.



Aleksandriya kutubxonasi qachon va kim tomonidan yo‘q qilinganligi haqida turli taxminlar bor. Tarixchilarning fikricha, eramizdan avvalgi 48-47-yillarda Yuliy Sezar Kleopatra va uning ukasi Ptolemey XIII o‘rtasidagi sulolaviy urushga aralashish maqsadida Misrga yurish qiladi. Harbiy harakatlar natijasida shaharga o‘t tushadi va kutubxonada ham katta yong‘in chiqib, kitoblarning bir qismi yonib ketadi. Rimga jo‘natish mo‘ljallangan to‘rt yuzga yaqin papirusga bitilgan qo‘lyozmalar saqlanayotgan portdagi omborxona ham yondirib yuboriladi. Binoning zarar ko‘rgan qismi qayta tiklanadi va Mark Antoniy uning fondini elli olamining yana bir yirik kutubxonasi Pergam kutubxonasi hisobidan to‘ldiradi. Boshqa ma'lumotga ko‘ra esa kutubxona xristianlar va butparastlar o‘rtasidagi kelishmovchilik sabab kelib chiqqan to‘qnashuvlar oqibatida yo‘q qilingani aytildi. Ayrim tarixchilar arablar Misrni bosib olgandan so‘ng kutubxonaga o‘t qo‘yanini yozishadi, ammo bu dalil keyinchalik o‘zini oqlamadi. Sababi, kutubxona arablarga vayron bo‘lgan edi.

Kutubxonanining qayta tug‘ilishi

Aleksandriya kutubxonasining tarixi faqat shu bilan yakunlanib qolmadi. O‘tgan asrning 80-yillarida YuNESKO xalqaro tashkiloti ushbu dunyo mo‘jizasini qayta tiklash tashabbusi bilan chiqdi. 1990 yilning 12 fevralida Misrning Asvon shahrida qator davlatlar rahbarlari va rasmiy shaxslar (Fransiya prezidenti Fransua Mitteran, Ispaniya qirolichasi, Monako malikasi, Fors ko‘rfazi mamlakatlari taxt egalari) ishtirokida antik davr Aleksandriya kutubxonasini qayta tashkil etish haqida «Asvon deklaratasiyasi» imzolandi.

Loyiha bahosi o‘sha paytda 172 million AQSh dollariga baholandi. Ushbu mablag‘ nafaqat qurilishga, balki zamonaviy kutubxonachilik jihozlari, va albatta, kitoblar sotib olishga yo‘naltirildi. Ko‘plab mamlakatlar kutubxona fondiga qimmatbaho adabiyotlar xazinalarini hadya qildi – Ispaniya Misrga andaluz olimlari ishlanmalarini, Turkiya esa Usmonli imperiyasi arxividan 10 ming tom asarni sovg‘a qildi. Shuningdek, Italiya va Vatikan ham qadimgi nodir qo‘lyozmalarni jo‘natdi.



1992 yilda kutubxona qurilishi bo‘yicha taxminiy ishlar boshlandi. 1995 yildan esa bevosita ishga kirishilib, 2001 yili ishlar yakunlandi. 2002 yilning 16 oktyabrida ko‘plab xorijiy davlatlar rahbarlari ishtirokida kutubxonaning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Shunday qilib, XXI asr Aleksandriya kutubxonasi O‘rta Yer dengizi qirg‘og‘iga ikki ming yil oldingidek ko‘rk bag‘ishladi.

Kutubxonaning me’moriy dizayni hovuzga to‘ldirilgan suv yuzasini eslatadigan disk ko‘rinishida bo‘lib, Misrning Quyosh ramzini bildiradi. Me’morlar zamonaviy o‘quvchilar talabini qondirish maqsadida kutubxonaga antik davr ruhini berishga harakat qilishgan. Kutubxona majmuasida ikki ming o‘rinli o‘quv zalidan tashqari, 8 million tom va 10 ming qadimiy qo‘lyozmalar uchun kitob javonlari, anjumanlar markazi, qo‘lyozmalarni qayta tiklash laboratoriysi, to‘rtta san’at galereyasi, uchta muzey hamda ilmiy-tadqiqot bo‘limi, shuningdek, ko‘zi ojizlar, o‘smlar va bolalarga ixtisoslashtirilgan kutubxonalar bor.



Bugungi kunda Aleksandriya kutubxonasi kolleksiysi 500 ming kitob, 700 ming video va audiokassetalar, 100 ming kompakt disklardan iborat. Fondni sakkiz millionga yetkazish rejalashtirilgan.